

**“TASDIQLAYMAN”**

**Oliy ta’lim muassasalari talabalari o’rtasida xorijiy tillar fan olimpiadasini o’tkazishga tayyorgarlik va tashkiliy ishlarni amalga oshirish bo’yicha**

**Tashkiliy qo’mita raisi**

**M. Boltabayev**

**“27” sentabr 2024-yil**



**O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari talabalari o’rtasida xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiadasini o’tkazishga tayyorgarlik va tashkiliy ishlarni amalga oshirish bo’yicha Tashkiliy qo’mita yig’ilishining**  
**1 - sonli**

**BAYONNOMASI**

Raislik qiluvchi:

M. Boltabayev – Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori  
I.M. Tuxtasinov - O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti rektori

Qatnashdilar:

Vazirlik mas’ul xodimlari, yetakchi oliy ta’lim muassasalari rektor, prorektorlar.  
(ro‘yxat bo’yicha).

**KUN TARTIBI:**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalari talabalari o’rtasida xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiada tanlovining Respublika bosqichi bosqichi yakunlari to’g’risida**

Oliy ta’lim, fan innovatsiyalar vazirining 2024-yil 15-iyuldagi 247-son “Respublika oliy ta’lim muassasalari talabalari o’rtasida xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiadasini o’tkazish to’g’risida”gi hamda O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 19-sentabrdagi 373- son “Universitetda Respublika oliy ta’lim muassasalari talabalari o’rtasida xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiadasining Respublika bosqichini tashkil etish to’g’risida” buyruqlari asosida O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2024-yil 26-27-sentabr kunlari fan olimpiadasining Respublika bosqichi o’tkazildi.

Oliy ta’lim, fan innovatsiyalar vaziri **Sharipov Kongratbay Avezimbetovich** so‘zga chiqib, quyidagilarni ta’kidlab o‘tdi: Mamlakatimizda ta’lim tizimida tub



islohotlar amalga oshirilib, hurmatli Prezidentimizning sohaga doir ko'plab farmon va qarorlari qabul qilinganligini mamnuniyat bilan qayd etishimiz joiz. Sababi zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ko'zlanayotgan marralarni zabt etish, islohotlarni samarali amalga oshirish esa har jihatdan malakali kadrlarga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori hamda joriy yilning 27-iyun kuni qabul qilingan "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 239-sonli qarori ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Bularga qo'shimcha qilib, **vazir o'z so'zida** Yangi O'zbekiston uchun katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlash, xorijiy tillarni o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni zamon talablariga mos yetuk mutaxassis etib tayyorlash asosiy vazifamiz ekani alohida ta'kidlab o'tdi.

**Shuningdek, vazir K.Sharipov** davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovichning "Ta'lim – Yangi O'zbekiston uchun katta investitsiya" deb ta'kidlaganlarini alohida keltirib o'tdi. Shunday ekan, - davom etdi vazir, – kreativ va tanqidiy fikrlash, yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislarni yetishtirish, barcha sohalarda dunyo miqyosida raqobatlasha oladigan yetuk kadrlar tayyorlash zimmamizdagi mas'uliyatli va ulug' vazifa. Ana shu maqsadlarni ko'zlagan holda yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarga daxldorlik, yurtga muhabbat tuyg'ularini singdirish zarur.

**Bundan tashqari vazir K.Sharipov:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning xorijiy tillar bo'yicha bilimlari, qobiliyatlarini namoyon etish, iste'dodlarini ro'yobga chiqarish, iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni munosib taqdirlash hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 15-iyuldagi 247-sonli "Respublika oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiadasini o'tkazish to'g'risida"gi buyrug'i asosan joriy yilning 26-27-sentabr kunlari o'tkazilganligi;

-Ishchi organ etib belgilangan vazirlik huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi mazkur masala yuzasidan belgilangan topshiriqlarni to'laqonli sifatli bajarganligini;

- markaz tomonidan O'zbekiston davlat jahon tillar universitetlari bilan uzviy hamkorlik o'rnatilib, olimpiada **yuksak saviyada o'tkazilganligini aytib o'tdi.**



Shundan soʻng, **Oʻzbekiston davlat jahon tillar universiteti** rektori **I.M.Tuxtasinov** soʻzga chiqdi:

U oz soʻzida:

Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 15-iyuldagi 247-sonli buyrugʻiga asosan Oliy taʼlim muassasalari talabalari oʻrtasida xorijiy tillar fan olimpiada tanlovining Respublika bosqichi Oʻzbekiston davlat jahon tillari universitetida oʻtkazilishidan mamnun ekanligi bilan birgalikda ulkan masʼuliyat ham yuklashini;

taʼlim muassasalarida chet tillarni oʻqitish va shu tillarda erkin soʻzlasha oladigan mutaxassislar tayyorlashni tubdan takomillashtirishga oid farmonlar, qarorlar va chora-tadbirlar ishlab chiqilib, samarali harakatlar olib borilayotganligi;

tadqiqotlar natijalariga koʻra, chet tilini bolalikda oʻrgatish tegishli metodlar va yondashuvlar bilan olib borilsa, muvaffaqiyatli natijalarga erishilishi sababli bu borada taʼlim muassasalarida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda chet tillarni oʻqitishning ilgʻor uslublarining joriy etilishi natijasida yoshlarimiz ulkan yutuqlarni qoʻlga kiritayotganligini **aytib oʻtdi**.

**Rektor I.Tuxtasinov** olimpiada boʻyicha quyidagi maʼlumotlarni keltirdi:

2024-yil 26-sentabr kuni Oliy taʼlim muassasalari talabalari oʻrtasida xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiada tanlovining Respublika bosqichining 1-shart mamlakatshunoslik, adabiyot, grammatik va leksik materiallar asosida **TEST**, 2-shart badiiy filmdan parcha koʻrish va mazmunini **YOZMA** bayon etish va 3-shart oʻzbek yoki rus tilidagi matnni chet tiliga **TARJIMA** qilish bosqichlari oʻtkazildi.

2024-yil 27-sentabr kuni Oliy taʼlim muassasalari talabalari oʻrtasida xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiada tanlovining Respublika bosqichining 4-shart tili oʻrganilayotgan mamlakatning davlat tizimi, iqtisodiyoti va sanʼati buyuk siymolari toshlar hayoti va shu kabilar haqida **SUHBAT** boshqichi oʻtkazildi.

mazkur olimpiadada 9 ta xorijiy til boʻyicha 31 ta oliy taʼlim muassasalaridan 93 nafar talaba ishtirok etdi.

oliy taʼlim muassasalari talabalari oʻrtasida xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiada tanlovining Respublika bosqichi yuqori saviyada, shaffof va adolatli oʻtkazilib, gʻolib ishtirokchilar aniqlandi.

olimpiada yopilish marosimida Tashkiliy qoʻmita, hakamlar hayʼati, gʻolib ishtirokchilar, ilmiy rahbarlar hamda mehmonlar uchun taqdirlash marosimi va badiiy tadbir tashkillashtirilib, diplom, sertifikat, mukofotlar va esdalik sovgʻalar komplekti berildi.

Shuningdek, rektor I.Tuxtasinov tadbirni yuqori saviyada oʻtkazishda yaqindan yordam bergan barchaga minnatdorchilik bildirib, tashkiliy ishlarda faol



qatnashgan barcha mas'ullarni rag'batlantirish hamda keyingi olimpiada jarayonlarini 2025-yil O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida o'tkazishni taklif qildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, olimpiada tanlovining respublika bosqichi va unga bog'liq tadbirlarning o'tkazilishi yuzasidan oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida xorijiy tillar fan olimpiadasini o'tkazishga tayyorgarlik va tashkiliy ishlarni amalga oshirish bo'yicha Tashkiliy qo'mita

### **QAROR QILADI:**

1. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida xorijiy (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) tillar fan olimpiadasi yuqori saviyada o'tkazilgan deb hisoblansin.

2. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan respublika olimpiadasi yakunlari bo'yicha hisobot kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Muvofiqlashtiruvchi guruhga har yili o'tkaziladigan Respublika fan olimpiadaga tayyorgarlik jarayonlari davomida vazirlikning ma'sul xodimlari, tegishli oliy ta'lim muassasalari va yetakchi xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini ko'rish tavsiya qilinsin.

4. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida xorijiy tillar fan olimpiadasi tanlovining respublika bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etgan **ilovaga muvofiq ro'yxatdagi 25 nafar talaba g'olib deb topilsin.**

5. Oliy ta'lim muassasalari rektorlariga ularni o'rnatilgan tartibda rag'batlantirish tavsiya qilinsin.

6. Olimpiada ishtirokchilari uchun sertifikatlar, g'oliblar va sovrindorlar uchun diplomlar, Tashkiliy qo'mita, Hakamlar hay'ati, ilmiy rahbarlari hamda olimpiada jarayonida faol qatnashgan barcha ishtirokchilarga tashakkurnomalar tayyorlanib, taqdirlanganligi inobatga olinsin.

7. Olimpiadaning tantanali ochilish va yopilish marosimlarini o'tkazish uchun ssenariy va dasturlarini tayyorlanganligi, ochilish va yopilish marosimlari Universitet anjumanlar zalida yuqori saviyada tashkil etilganligi hamda o'tkazilganligi inobatga olinsin.

8. Olimpiadani tashkil etish, o'tkazish, bilan bog'liq barcha xarajatlar (olimpiada jarayonida Tashkiliy qo'mita, Hakamlar hay'ati, barcha ishtirokchilar va ularning ilmiy rahbarlarining ovqatlanishi va turar joyi, g'oliblarni esdalik sovg'alari) O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanganligi inobatga olinsin.

9. Olimpiadani tashkil etish va o'tkazishda Tashkiliy qo'mita va Hakamlar hay'ati a'zolari, Muvofiqlashtirish organi, faol ishtirok etgan mas'ullar hamda Olimpiada g'oliblarining ilmiy rahbarlari o'zlari faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan rag'batlantirilsin.



10. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan holda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti bilan hamkorlikda Respublika oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiadasi 2025-yilda o'tkazilishi inobatga olinsin.

**Kotib**



**Sh.Rasulov**

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiadasini o'tkazishga tayyorgarlik va tashkiliy ishlarni amalga oshirish bo'yicha Tashkiliy qo'mita yig'ilishining bayoniga ilova

**Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida xorijiy (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) tillar fan olimpiadasi g'oliblari**

**RO'YXATI**

**Ingliz tilidan:**

**1-o'rin** – Andijon davlat chet tillari instituti talabasi Baxodirov Oyatullo Baxtiyorjon o'g'li.

**2-o'rin** – Namangan davlat chet tillari instituti talabasi Xoldarov Mashxurbek Xusniddin o'g'li.

**3-o'rin** – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi Abdushukurova Umida Xasan qizi.

**Nemis tilidan:**

**1-o'rin** – Urganch davlat universiteti talabasi Abduraxmonova Diana Aleksandrovna.

**2-o'rin** – Buxoro davlat universiteti talabasi Badalov Feruz Nuriddinovich.

**3-o'rin** – O'zbekiston Davlat jahon tillari unversiteti talabasi Peysenova Gulnur Usenbek qizi.

**Fransuz tilidan:**

**1-o'rin** – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi Pirnazarova Sevara Doniyor qizi.

**2-o'rin** – Buxoro davlat universiteti talabasi Narzulloyeva Dilfuza Bahriddin qizi.

**3-o'rin** – O'zbekiston Milliy universiteti talabasi Hayitboyeva Dilnoza Ne'mat qizi.

**Italyan tilidan:**

**1-o'rin** – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi Odilxo'jayeva Muhayyo Rustam qizi.

**2-o'rin** – Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi Karimov Sho'hrat Inomitdinovich.

**Ispan tilidan:**

**1-o'rin** – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi Karimova Amaliya Baxromovna.

**2-o'rin** – Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi Ergashev Azizbek Alisher o'g'li.

**Koreys tilidan:**

**1-o'rin** – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi G'ofurova Sabohat Jasur qizi.



**2-o'rin** – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi Rustamova Durdona Xakimbek qizi.

**3-o'rin** – Andijon davlat chet tillari instituti talabasi Tohirov Nurmuhammad.

**Xitoy tilidan:**

**1-o'rin** – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi Karimova Nilufar Shavkat qizi.

**2-o'rin** – Andijon davlat chet tillari instituti talabasi Axmadjonov Fayzillo Abdumutalib o'g'li.

**3-o'rin** – Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi Absalomova Sayyora Karim Qizi.

**Yapon tilidan:**

**1-o'rin** – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi Nasimova Moxirabonu Sirojiddin qizi.

**2-o'rin** – Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi Mavlanov Temurbek Xabibulla o'g'li.

**3-o'rin** – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi Qo'ziboyeva Komilaxon Shuxratjon qizi.

**Arab tilidan:**

**1-o'rin** – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi Shaymardanova Sabina Abdullayevna.

**2-o'rin** – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi G'oziyeva Rayxona Akramjonovna.

**3-o'rin** – Namangan davlat chet tillari instituti talabasi Xojimirzayeva Dilnoza Muzaffar qizi.